

Mavzu: **Nutq**

Aa Chiroyli va to'g'ri
yozish san'atidir.



Nutq

og'zaki

yozma



1-mashq. Topishmoqlarning javobini toping.

Og'a-ini harflar,
Turnaqator tizilar.

Katta quti, ko'zi bor.
Ko'p tomosha, so'zi bor.

Juda sevamiz uni,
Xilma-xildir mazmuni.
Bo'lmasa ham muallim,
Bera oladi ta'lim.
U barchaning ulfati,
Bo'lar ba'zan surati.
Qani, o'rtoq, buni top!
Eslagan der: bu

Po'lat Mo'min



A B D
E F

- Og'zaki va yozma nutq bizga nima uchun kerak?



2-mashq. O'qing. Insonlarni xursand qiladigan so'zlarni topib, ko'chiring.

assalomu alaykum

qo'pol

xo'p bo'ladi

qo'rqqoq

marhamat

chaqimchi

xush kelibsiz

dangasa

qizg'anchiq

labbay

shoshqaloq

rahmat

- Tanlovingizni izohlang.



3-mashq. Maqollarni ko'chiring. Ma'nosini izohlang.



Avval o'yla, keyin so'yla.

*Aqlli gapni tinglash –
Kelajagingni anglash.*

Os gapir – soz gapir.





Notiqlik – o‘z fikrini bayon etish orqali tinglovchilarga ta‘sir ko‘rsatish va ularni ishontirish san‘ati.



4-mashq. Bir xil rangdagi harflardan so‘zlar hosil qiling. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

① STNSAO‘AURDTZBLQAIDRDODIRA

② LDMJBAAEABAEDEBRVIABNOYDAIB



5-mashq. Nutq qoidalarini ko‘chiring va yod oling.

1. So‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplarni to‘g‘ri tuzing.
2. So‘zlarni o‘rinli qo‘llang.
3. Suhbatdoshingizga baland ovozda gapirmang.
4. Ifodali va ravon so‘zlang.
5. Har so‘z talaffuziga e‘tibor bering.
6. Suhbat vaqtida qo‘pol so‘zlarni ishlatmang.
7. Bu qoidalarga amal qiling.

